

**CHAPAQAYLIK FAZILATMI YOKI NUQSON ?**

Shamsiddinov Safar To'rayevich

2-son Davolash fakulteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sharipova Farida Salimdjanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Aholi o'rtasida chapaqaylik bilan tug'ilganlar xam uchrab turadi. Olimlar chapaqaylikni genetika bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan fikrda. Unga ko'ra bir tuxum hujayradan paydo bo'lgan egizaklarda genlar bir xil bo'ladi, biroq bunday juftliklarning 17 foizida ishchi qo'llar har xil bo'ladi. Ba'zan homilada chapaqaylik tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, bir tadqiqotga ko'ra, agar ona homiladorlik vaqtida tez-tez stress holatiga tushgan bo'lsa, chaqaloqning chapaqay bo'lib tug'ilishi imkoniyati oshadi. Maqolada chapaqaylik haqida turli xil faktlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *chapaqaylik , irsiyat, bosh miya, mahurat, nutq, istedod.*

Mavzuning dolzarbligi Chapaqaylik — irsiyatga bog'liq holat bunda ba'zi maqsadga muvofiq harakatlarni bajarishda ko'proq chap qo'l ishlatiladi. Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida funksiyalar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o'qish, yozish, hisoblash, analitik faoliyatning (logik, matematik) murakkab shakllari, o'ng yarim shar zimmasiga esa aniq obrazli faoliyat (tashqi olamdagi narsalarning ko'rinishi, tovushi, rangi va boshqa bo'yicha aniqlash) tushadi. Oyoq-qo'llar harakatini bajarishda ikkala yarim shar qatnashadi; chap yarimshar ixtiyorida o'ng qo'l va oyoq, o'ng yarim shar ixtiyorida chap qo'l va oyoq bo'ladi. Ko'pchilik kishilarda chap yarim shar ustunlik qilganidan o'ng qo'l ko'proq ish bajaradi; o'ng qo'l yordamida ishlash, ovqat yeyish va boshqa odatdagi holat. Chapaqaylarda bosh miyaning o'ng yarim shari funksiyasi chap yarim sharnikidan ustun turadi. Rivojlanishning har ikkalasi: o'naqaylik ham,



chapaqaylik ham normal hisoblanadi. Biroq turmushda va ishlab chiqarishda hamma asboblar va mehnat qurollari o'naqaylarga mo'ljallanganligi tufayli chapaqay bolalarni o'naqaylikka o'rgatish maqsadga muvofiq. O'naqaylik va chapaqaylikni aniqlash nevropatologiyada muhim ahamiyatga ega. Chapaqaylarning qiziq xususiyati shundaki, ularning chap qo'li dominant bo'lib, ularga turli musobaqalarda ustunlik beradi. Buning sababi shundaki, o'naqaylar o'ng qo'lini faol ishlatadigan va zarba boshqa tomondan kelishini kutmaydigan raqiblar bilan muomala qilishga odatlangan.

Chapaqay – asosan chap qo'li bilan ishlovchi insonlarga aytiladi. „Chapaqay“ so'zi antonimi – „o'naqay“. Insonlar orasida chapaqaylar tahminan 15%ni tashkil etadi, ya'ni, har yettinchi inson chapaqaydir. Chapaqay inson o'ng qo'lga nisbatan chap qo'lini ko'p ishlatadi. Chapaqay chap qo'lini ayniqsa, shaxsiy ehtiyoj, taom tayyorlash va shunga o'xshash ishlarda ko'proq foydalanadi. Yozadigan qo'l esa o'naqay yoki chapaqaylikni aniq indikatori hisoblanmaydi. Masalan, ko'pchilik chapaqaylar o'ng qo'lida yozadilar, lekin qolgan barcha ishlarni chap qo'llarida qiladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chapaqaylar jinsi ayollardan ko'ra, ko'proq erkaklar bo'ladi. Chapaqaylar bir tuxumlik egizaklar orasida ko'p uchraydi va ba'zi asabiy zo'riqqan insonlar guruhida, ya'ni, epilepsiya, Daun sindromi, autizm, aqliy rivojlanishi to'xtab qolgan va disleksiyalarda uchraydi. Statistika ko'ra, birtuxumlik egizaklar 76%lik chapaqay bo'lish imkoniyati bor. Bunga sabab qilib, qisman genetik va qisman ekologik o'xshashligi ko'rsatiladi. Chapaqaylar Janubiy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Janubiy-sharqiy Osiyo, Avstraliya aholilarida boshqa etnik guruhlariga nisbatan orasida ko'proq uchraydi. Chap qo'llar Janubiy yarimsharda ko'proq: Bu sotsial sabablarga ko'ra bo'lishi ham mumkin, chunki Ko'hna olam chetlarida chapaqaylar jamiyatdan chetlashtirilib, siqib chiqarganlar. Statistika ko'ra, hozirda sayyoramizda 500 milliondan ortiq chapaqaylar yashamoqda. Yevropada chapaqaylar tug'ilayotgan chaqaloqlar orasida 10%ni tashkil etadi: ular baqiroqroq, sabrsizroq, lekin bolalar yoshida esa kirishimliroq, so'zga chechanroq bo'lishadi.



Ba'zi bolalar dastlab chapaqay bo'ladilar, ammo ularning rivojlanishi jarayonida ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Rivojlanish pallasidagi barcha bolalar otalariga taqlid qilishadi va shunga mos ravishda ularning barcha xatti-harakatlarini takrorlashadi. Ko'pchilik chapaqaylar "ko'zgu yozuvini" yozishdek noyob qobiliyatiga ega. Bunday qobiliyat paydo bo'lishining sabablari va shartlari hali ham noma'lum. Aslida, chapaqaylar haqida juda ko'p asossiz va isbotlanmagan afsonalar mavjud. Ular orasida eng mashhurlari ularning qisqa umr ko'rishi, ijodkorlik qobiliyati kuchliligi va allergiya moyilligi tog'risidagilari. Biroq, yangi tadqiqotlar ushbu fikrlarni to'liq rad etgan. Chapaqaylar kompyuter klaviaturasida o'naqaylarga qaraganda tezroq yozishadi. Buning sababi, eng ko'p ishlatiladigan harflar asosan klaviaturaning chap tomonida joylashgan. Chapaqay odamlarda nafaqat chap qo'l va oyoq, balki butun tanasida ham chap tomon ustunlik qiladi. Chapaqaylar avtomatik ravishda teleskopga chap ko'zi bilan qaraydi. Telefonni ham chap qulog'iga tutishadi. Chapaqaylarga nisbatan "noxaqlik" hali ham ko'p mamlakatlarda mavjud. Shunday qilib, Gana Respublikasida chapaqay inson taxtga davo qilishi taqiqlanadi. Ba'zi mamlakatlarda odamni faqat o'ng qo'lidan foydalanishga o'rgatish uchun juda shafqatsiz usullar joriy etilgan. Chapaqaylar orasida mashxurlar ham talaygina: Barak Obama, Gay Yuliy Sezar, Leonardo do Vinchi, Pablo Pikasso, Albert Enshteyn, Isak Nyuton, Bill Geyts, Charli Chaplin, Merlin Monro, Lyudvigvan Bethoven, Mark Tven shular jumlasidandir. Amerikaliklarning tadqiqotiga ko'ra, chapaqaylarda baxtsiz hodisalarga uchrash xavfi yuqori bo'lar emish. Chapaqaylarning taxminan 17 foizida avtohalokatda jarohat olish ehtimoli bor. O'ng qo'l egalari uchun faqat 8% xavf ostida. Biroq, olimlar bu xususiyatni hali ham tushuntirib bera olishmayapti.



Chapaqay erkaklar o'naqaylariga nisbatan kuchliroq hotiraga ega bo'lishadi. Dunyo miqyosida chapaqay insonlar taxminan 12-13%ni tashkil etadi. Bundan tashqari nasliy chapaqay insonlar ham bor. Bu xuddi kasallik singari nasldan-naslga o'tadi. Olimlar chapaqaylikni genetika bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan fikrda. Unga ko'ra bir tuxum hujayradan paydo bo'lgan egizaklarda genlar bir xil bo'ladi, biroq bunday juftliklarning 17 foizida ishchi qo'llar har xil bo'ladi. Ba'zan homilada chapaqaylik tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, bir tadqiqotga ko'ra, agar ona homiladorlik vaqtida tez-tez stress holatiga tushgan bo'lsa, chaqaloqning chapaqay bo'lib tug'ilishi imkoniyati oshadi. Olimlarning ta'kidlashicha, chapaqay insonlar uch turga bo'linar ekan.

MAJBURIYCHAPAQAYLAR

Odatda qo'li singan yoki shikastlangan bolalarga ota-onalari yoki maktabdagi o'qituvchilari tomonidan chap qo'lda yozish o'rgatiladi. Ammo qanchalik urinmang, uning husnixati chiroyli bo'lmaydi, chunki ular tabiatan o'ng qo'lda yozishga o'rganganlar. Bunday bolalarda miyaning faol qismi chapligicha qolaveradi. Bu degani uning o'ng tomon miyasi uchun javobgar qism chap tomon hisoblanadi. Chunki o'ng qo'l bilan yozadigan insonlarda ham xuddi shunday. Majburiy chapaqaylar yer sharining atigi 3% odamlarini o'z ichiga oladi.



TAQLIDIYCHAPAQAYLAR

Bunday insonlar bolalik chogʻidan oila aʼzolari yoki maktabdagi oʻrtoqlariga qarab chapaqay boʻlganlar. Chapaqay boʻlishlariga albatta kimdir sababchi boʻladi. Shuning uchun boʻlsa kerak bunday chapaqay bolalarning yozuvi xunuk va tartibsiz boʻladi. Chunki ularda ham aslida miyaning chap yarim shari faollik qiladi. Bunday insonlar oramizda faqatgina 0,5% ni tashkil etadi.

OʻZXOXISHIGAKOʻRACHAPAQAYINSONLAR

Baʼzi insonlarda qoʻlga nisbatan faol yarim shar uncha yaxshi rivojlanmaydi. Shuning uchun bunday odamlar qaysi qoʻlda yozishni oʻzlari hal qilishadi. Yoki odatda ular ikki qoʻlida ham bir xil yoza olish qobiliyatiga egalar. Ular taxminan 7-8%ni tashkil etishadi.

Xalqaro chapaqaylar kuni – har yili **13-avgustda** nishonlanadigan bayram hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Xoliqov P.X., Qurbonov A.Q., Daminov A.O., Tarinova M.V. Tibbiy biologiya va genetika. Darslik. Toshkent. 2019 y.
- 2.Yarigin M.N., Biologiya.Uchebnik. Moskva 2016 g.
- 3 Pexov A.P. Biologiya. Meditsinskaya biologiya, genetika, parazitologiya. Uchebnik. Moskva. 2014 g.
- 4.Xamidov J.X. va boshq. Tibbiyot biologiyasi va irsiyatdan qoʻllanma. 1991 yAlimxodjaeva P.R., Juravleva R.A. Rukovodstvo po meditsinskoy parazitologii.Uchebnik. Tashkent. 2004 g.
5. NurovaZ.A. Sharipova F.S. Narzullayeva G.Q. Tibbiy biologiya umumiy genetika oʻquv qoʻllanma 2023 y